

## O'zbekistonda Imkoniyati Cheklangan Bolalarga Yaratilayotgan Shart-Sharoitlar

Normurodov Elbek, Magistrant

Qarshi Davlat Universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatilayongan g'amxo'rliklar faktlar asosida keltirib o'tilgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 mln. insonda psixik va jismoniy rivojlanishda buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu yer yuzidagi aholining 1/10 qismini tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Imkoniyati cheklangan, logopatlar, nogiron, nafaqa puli, kar-soqov, diskomfort holat, ko'zi ojiz, aqli zaif, inklyuziv ta'lif, difektolog

Imkoniyati cheklanganlar qatoriga: eshitish sezgisida buzilishlari mavjud insonlar (kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar); nutqida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (logopatlar); intellektual rivojlanishida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif insonlar); psixik rivojlanishida kompleksli buzilishlar kuzatiluvchilar (ko'r hamda kar-soqov insonlar, ko'r hamda aqli zaif insonlar va boshqalar); tayanch apparat tizimida kasalliklari mavjud; psixopat xulqli insonlar kiradi. Bundan tashqari shunday qatlami borki, ular o'rta ta'lif, maktabgacha ta'lif muassasalariga boradilar. Salbiy ijtimoiy omillar va ayniqsa shaxslararo munosabatlar ta'sirida diskomfort holatini boshdan kechiradilar, ushbu holat ularning ulg'ayishi bilan oshib boradi. Keyinchalik psixojarohatlovchi ta'sirga ega bo'ldi. Shunga muvofiq, bunday insonlarga jamiyatda moslashishi uchun alohida yordam kerak bo'ldi.

Xalqaro ijtimoiy zaiflik va cheklangan hayot faoliyatni hamda buzilishlar nomenkulurasiga muvofiq "hayot faoliyatining cheklanganligi tushunchasi ostida berilgan yosh davri uchun normal hisoblangan faoliyatni bajarish, yoki uni bajarish usullarini amalga oshirishdagi har qanday cheklanganlik tushuniladi".

Hayot faoliyatining cheklanganlik darajasi aynan shu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan "og'irlik shkalasi" orqali miqdoriy ko'rsatkichlarda aniqlanadi. Turg'un funksional buzilishlarga ega bolalarning aksariyati bu nogiron insonlardir.

Davolash muassasalari binolarni qayta qurish, ta'mirlash va yangilarini bunyod etish, nogiron bolalarni sog'lomlashdirish borasida keng miqyosida ishlar amalga oshirilib borildi. Sog'lom bolalarning tug'ilishi bo'yicha aholi orasida sanitariya targ'ibotini kuchaytirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish kun tartibiga dolzarb qilib qo'yildi.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. Bugungi kunga qadar uni BMTning 192 a'zo-davlatidan 184 tasi ratifikatsiya qilgan.

Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalanish, ta'lif olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqtini o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zları va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan. Ushbu huquqlarni amalga oshirishning kafolatlari belgilangan.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya 50 ta moddadan iborat bo'lib, dunyodagi nogironligi bo'lgan shaxslar holatini tahlil qilish asosida qabul qilingan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil qiladi, bugungi kunda ularning soni 1 milliardga yetgan.



BMT Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 2021-yil 7-iyunda O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingani ayni sohada samarali islohotlarni davom ettirishning yorqin namunasi bo‘ldi.

2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxs ro‘yxatga olingan. Ularning 101 ming nafari – 16 yoshgacha bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalardan iborat. Bolalarning sifatlari ta’lim olishi juda muhim. 2019-yil holatiga ko‘ra, 710 mingga yaqin nogiron fuqarolarning 609 ming nafari 16 yoshdan kattalar va ularning bor-yo‘g‘i 10 foizi oliv ma’lumotli hisoblanadi. Ko‘rinib turganidek, oliv ma’lumotli nogiron fuqarolar juda kam. Biroq kambag‘allikni qisqartirishning asosiy shartlaridan biri – oliv ta’lim berish.

2020-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun nogironligi bo‘lgan shaxslarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini tartibga solishi bilan ahamiyatlidir. Qonun, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish modelini va sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishga qaratilgan.

2020-yil 13-oktyabrdagi qabul qilingan «Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanab o’tilgan.

Prezidentimizning 2021-yil 27-noyabrdagi “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlik belgilash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bugun yurtimizda kechayotgan ulkan islohotlar zamiridagi “Inson qadri va qimmati har narsadan ustun” degan ezgu g‘oyani namoyon etgani bilan alovida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qarorda fuqarolarga nogironlikni belgilashdagi muayyan to‘sqliarni yo‘qotish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etish, ma’lumotlar elektron bazasini shakllantirish orqali fuqarolarga zamon talablariga javob beradigan samarali xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish maqsad qilingan.

Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ta’minalashga qaratilgan 100 ta maqsadni qamragan. Shu maqsadlarning aksariyatida nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari va manfaatlariga daxldor ko‘plab vazifalar belgilangan.

Bu o‘rinda, birinchi navbatda, O‘zbekiston Prezidentining mazkur Taraqqiyot strategiyasini imzolashga oid Farmonida ko‘zda tutilgan ustuvor masalalarga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Farmonga ko‘ra, Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Loyihada, jumladan, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alovida ma’lumotlar bazasini yaratish ko‘zda tutilgan.

Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdag'i maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o‘quvchi uyda ta’lim oladi. 2020 yil statistikasiga ko‘ra, O‘zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o‘rtalim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. Prezident qarori bilan 2025-yilgacha inklyuziv umumta’limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo‘yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning 2022-2023-o‘quv yilida alovida ta’lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta’lim maktabida alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflari ochilishi belgilangan. Bunday sinflarga diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DeGS), disleksiya va autizm tashxisi qo‘yilgan bolalar qabul qilinadi.



O'zbekiston bo'yicha kam ta'minlangan fuqarolarning 3 foizi mahallalardagi kam ta'minlanganlar ro'yxatida turadi. Toshkent shahridagi 17-sonli musiqa va san'at maktabida 280 nafar bola ta'lim oladi. Ularning 133 nafarini ko'zi ojiz bolalar tashkil qiladi. Demak, faqat ko'zi ojiz o'quvchilarning o'zi 25 foizdan ancha yuqori. Lekin imkoniyati cheklangan va kam ta'minlangan bolalarning faqat 25 foizigina to'lov pulidan ozod qilinishi mumkin.

Respublika bo'yicha 86 ta jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashgan maktab-internatlar mavjud va ularda 21 ming 153 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Bundan tashqari, 21 sanatoriy turidagi maktab-internatda 6 131 nafar o'quvchi o'qiydi.

Uzoq muddat davolanishga ehtiyoji bo'lgan, nogironligi bor uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 13 272 nafarni tashkil etadi. Yana 13 mingdan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim maktablaridan inklyuziv tarzda ta'lim olishyapti.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashgan maktablarda mutaxassisligi bo'yicha defektolog bo'lgan o'qituvchilar, tarbiyachilar yoki defektologiya bo'yicha qayta tayyorlashdan o'tgan pedagoglar faoliyat yurita oladi.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, qulay shart-sharoit yaratish ham e'tibor markazida.


Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli isloxoxtolarining negizida insonparvarlik, mexr-muruvvat va eng asosiysi xalq manfaatlarini ko'zda tutilganligi amalda yaqqol ko'rilib turibdi. Buni isboti sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son qaroriga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiyligi sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratish tartibi joriy etilgan edi.

2018-yil 2-iyundagi Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Hukumat qarori bilan qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalarining taqsimot qilish tartibi belgilandi va universitetga ham 20 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar o'qishga qabul qilindi. Ularning tahsil olishlarida yetarli imkoniyat yaratish maqsadida rektorimiz tomonidan qator takliflar berilib, amaliy ishlar boshlangan. Jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning 10 nafari imtiyozli ravishda (TTJ uchun to'lov pulidan ozod etilgan) Talabalar turar joyiga joylashtirildi, o'zi harakatlanishi qiyin bo'lganlarining 4 nafariga o'z guruhidan bo'lgan faol talabalar biriktirildi, hozirda 1-sonli talabalar turar joyining 1-qavatida nogironligi bo'lgan talabalar uchun alohida xonalar tashkil etilmoqda (qurilish ishlari boshlangan). 5 nafar imkoniyati cheklangan talaba va ularga yordam beradigan 2 nafar faol 1-kurs talabalardan iborat alohida o'quv guruhi shakllantirildi va dars jadvaliga kiritildi. Ushbu guruh uchun darslar talabalar turar joyining o'zida tashkil etilishi belgilandi (auditoriya tayyorlandi).

Ana shu yo'naliishdagi ishlar samaradorligini oshirish, mazmun-mohiyati targ'ibotini izchil yo'lga qo'yish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalarida Andijon davlat pedagogika institutida ham muayyan ishlar olib borildi.

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakultetida jami 13 nafar imkoniyati cheklangan talaba tahsil olmoqda. Ulardan 3 nafari ko'rishda, 2 nafari tayanch harakat qismida nuqsoni bor va 3 nafar epilepsiya hamda somatik kasalliklari mavjud talabalardir. Ana shu talabalarga Maktabgacha ta'lim kafedrasining 25 nafar professor-o'qituvchisi tomonidan inklyuziv ta'lim berib kelinmoqda.

Axborot-resurs markazida ko'rishida nuqsoni mavjud talabalar uchun Brayl alifbosidagi maxsus adabiyotlar bilan boyitildi. Shuningdek, ko'rish qobiliyati cheklangan talabalar uchun oqilona qulaylik — ularning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, Brayl shriftida taktil sezish uchun moslashtirilgan darsliklar bilan ta'minlangan.



Ma'lumki, ko'rish qobiliyati cheklangan talabalar matematika formulalarini, doskada chizilgan grafiklarni, chizmalarni faqatgina eshitish orqali to'liq qabul qila olmaydi, bularni so'zlar orqali tushuntirish ham ancha mushkul. Buning uchun olti nuqtalik Brayl shriftida nashr etilgan maxsus darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ana shunday darsliklarni olib kelish, shu bilan birga, maxsus qo'llanmalar yaratish bo'yicha ham istiqbolli rejalar belgilab olingan.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ular qiziqishlaridan kelib chiqqan holda "Mohir qo'llar", "Ranglar jilosi", "Qiziqarli matematika", "Notiqlik san'ati" kabi bir qancha to'garaklarga jalb etilgan.

Bir so'z bilan aytganda, yuqorida qayd etilgan ishlar mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishga har tomonlama sharoitlar yaratish bo'yicha olib borilayotgan jarayonlar, xususan, yurtimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga amaliy misol bo'ladi. Institutimizda mazkur yo'nalishdagisi ishlar izchil va tizimli ravishda davom ettiriladi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T.: 2021
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yana-da oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (PQ-57-son, 21.12.2021-y.)
3. A. Inoqov. Jismoniy imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimiz himoyasi va manfaatiga qaratilgan qutlug' qadam. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021-yil 3-dekabr, 244-son.
4. N.Xolmurodova. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishning psixologik jihatlari. 2022
5. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova. Maxsus pedagogika -T. Fan va texnologiyalar, 2014.